



## ZAMONAVIY TALABA — KELAJAK BUNYODKORI

*Akmalova Shahnoza*

Bugungi globallashuv davrida jadal sur'atlarda taraqqiy etib borayotgan davlatlar qatori bizning O'zbekistonimiz ham har bir sohada peshqadamlar qatorida bo'lishga intilmoqda. Kun sayin amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi, zamonaviy kelajak esa ,shubhasiz, biz talabalarning qo'limizdadir. Yurt ravnaqi yo'lidagi intilishlar, yangilanishlar men va men kabi Vatanimiz yoshlarining bilim saviyasi bilan bevosita bog'liqdir. Zero, kuchli aql-zakovatga ega yoshlarimiz ertamiz egalari, kelajak bunyodkorlaridir.

Zamonaviy talabaning asosiy quroli bilim va tafakkurdir. Axborot texnologiyalari davrida talaba doimiy izlanishda bo'lishi, o'zi ustida ishlashi va zamon bilan hamnafas yashashi zarur. Negaki bilimli talaba ertangi kunning malakali mutaxassisi, yetuk rahbar va jamiyat tayanchidir. Ta'lim olish jarayonida faqatgina o'qiyotgan darsliklarimiz bilan cheklanib qolmay, turli qo'shimcha manbalar, ilmiy maqolalar va zamonaviy platformalardan foydalanish ham dunyoqarashimiz ,bilim doiramizni kengaytiradi.

Shuningdek, zamonaviy talaba ijtimoiy faolligi bilan ham ajralib turadi. U turli tadbirlar, ilmiy anjuman, konferensiyalarda faol ishtirok etib, o'z tashabbuslari orqali jamiyat hayotiga hissa qo'shadi. Volontyorlik faoliyati , jamoat ishlarida mas'uliyat bilan jonbozlik ko'rsata olgan talaba chinakam shaxs bo'lib yetishadi va bunday yoshlar kelajakda jamiyat hayotidagi muammolarga ham befarq qarab tura olmaydi.

Bundan tashqari, kun sayin yangilanayotgan eng so'nggi axborot texnologiyalaridan foydalana olish ham zamonaviy talabaning xususiyatlaridan biridir. Uni maqsadli qo'llay olish, bilim olish va o'rgatish yo'lida atrofdagilarga ,shuningdek, kelajak avlodga tadbiiq etish ham ilm dargohida tahsil olayotgan har bir yosh va bo'lajak kadrning burchidir.



Zamonaviylikka intilgan har bir talaba nafaqat yuqoridagi qobiliyat ,mahoratga ega bo'lishi ,balki kuchli odob, tartib va intizomni ham o'zida mujassam etmog'i lozim. Chunki bilim bilan bir qatorda tarbiya, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlar ham talabaning shaxs sifatida kamol topishida muhim o'rin tutadi. Ma'naviy yetuk talaba o'zi bilimini faqatgina shaxsiy manfaatlar uchun emas, balki jamiyat ravnaqi uchun sarflaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy talaba kelajak bunyodkoridir. U o'zining bilimi, kuchli salohiyati va mas'uliyati bilan Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'sha oladi. Bugun auditoriyalarda tahsil olayotgan har bir talaba ertangi kunning taqdirini belgilovchi kuch ekanini chuqur anglab, o'z oldiga katta maqsadlar qo'ya bilishi zarur. Zero, bilimli va faol talabalar bor ekan, kelajagimiz porloq bo'lishiga shubha yo'q.